

28/3-10-son

20 fevral 2024 yil.



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirligi
Ijro apparati rahbari

_____ A. Fazilov

2024-yil “__”-fevral

2024-yil 15-fevral

Toshkent shahri

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi
xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umumiy o‘qitish
bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan
DASTUR

No	Mavzular nomi	Mashg‘ulot- larga ajratilgan soatlar	Mashg‘ulot sanasi
1.	Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari. Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari. Xalqaro standartlar hamda milliy qonunchilik.	2	fevral
2.	Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosatining mazmun-mohiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlar, ularni xalqaro standartlarga mos kelishining majburiyligi.	4	mart
3.	Vazirlikda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish. Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmalarining majburiyat va vakolatlari.	2	aprel
4.	Nomzodlarni tanlab olish va ishga qabul qilish jarayonlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar.	2	may

5.	Fuqarolar, kontragentlar va uchinchi shaxslar o'rtasida o'zaro aloqalar bilan bog'liq xavf-xatarlar. Turli xizmat turlari, funksiyalar uchun litsenziya (xulosa va boshqa ruxsat beruvchi funksiyalar) berish, xaridlarni amalga oshirish va tanlovlar bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar.	2	iyun
6.	O'zaro hamkorlik va tasarrufiy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar. Korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berish.	2	iyul
7.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi faoliyat sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsion huquqbuzarlik holatlari va ularni bartaraf etish. Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi talablariga rioya qilmaslik asoratlari va ehtimoliy oqibatlari.	2	avgust
8.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va korrupsiyaviy xatti-harakatlarning asosiy turlari, ularning salbiy oqibatlari. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar uchun intizomiy va jinoiy javobgarlik.	2	sentabr
9.	Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri, huquqiy madaniyati va xulq atvorini shakllantirish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik.	2	oktabr
10.	Yakuniy sinov (savol-javob, test, so'rovnoma shaklida)	4	noyabr
JAMI:		24	

Izoh:

Mazkur o'qitish dasturi Vazirlikning markaziy apparati va hududiy bosh boshqarmalari uchun taalluqlidir. Zarur hollarda asoslantirilgan tarzda o'qitish vaqtiga va mavzulariga o'zgartirish kiritish mumkin.	
O'qitish shakli	Mustaqil ta'lim, ma'ruza, seminar, trening
O'quv kursi mo'ljallangan kontingent	Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalar va tuman (shahar) bo'limlari xodimlari
O'quv kursining hajmi	24 soat

O'quv kursining maqsadi	Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.
O'quv kursining metodik ta'minoti	Tinglovchilarga slayd-taqdimoti, tarqatma materiallari, test savollari va o'quv metodik adabiyotlar tavsiya etiladi.
O'quv kursini tashkil etish	Mavzular xodimlar tomonidan mustaqil va o'quv seminar shaklida o'zlashtiriladi. Shuningdek, o'quv mashg'ulotlari Zoom platformasi orqali ham amalga oshiriladi. Mavzularning ma'ruzalari elektron shaklda (prezentatsiya, tarqatma materiallar va boshqa ko'rinishlarda) tinglovchilarga taqdim qilinadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo'limi